

parvarishi va ozuqa rejasi to'g'ri tashkil etilganda, bu duragaylar yuqori natijalarga erishish imkoniyatiga ega.

Xulosa. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy parvarish usullari va ozuqa rejimlari qo'zilarning o'sish ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Hisor va jaydari qo'zilarining o'sish ko'rsatkichlari, ularning iqtisodiy ahamiyatini oshirish va qishloq xo'jaligi sohasida barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev, A. (2020). "O'zbekiston qo'zichoqchilikni rivojlantirish: Hisor va jaydari qo'zilari." O'zbekiston Qishloq xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti.
2. Toshpulatov, B. (2019). "Qo'zichoqchilikda duragaylar va ularning o'sish ko'rsatkichlari." O'zbekiston Qishloq xo'jaligi va suv xo'jaligi akademiyasi.
3. Xolmatov, D. (2021). "Hisor va jaydari qo'zilarining genetik xususiyatlari." O'zbekiston Biologiya jurnali, 3(2), 45-50.
4. Ismoilov, R. (2018). "Qo'zichoqchilikda ozuqa va parvarish sharoitlari." O'zbekiston Qishloq xo'jaligi jurnali, 5(1), 12-18.
5. Murodov, S. (2022). "Duragaylar orqali qo'zilarning o'sish ko'rsatkichlarini oshirish." O'zbekiston Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi jurnali, 4(3), 30-35.

SOG'IN SIGIRLAR SUT MAHSULDORLIGIGA TASHQI OMILLARNING TA'SIRI

Tleumuratov A.K., Usmanova J.S., Embergenova J.Q

Samarqand davlat veterinariya meditsinasи, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

Respublikamizda chorvachilik xususan qoramolchilik fermer, dehqon va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda rivojlanmoqda, afsuski fermer xo'jaliklarining ulushi 4-5% dan oshmayotir, rivojlangan mamlakatlarda esa ularning xissasi kamida 60-70 % ni tashkil etadi.

Ushbu vazifalarni samarali bajarishda chorvachilik ozuqa bazasini mustaxkamlash va jadal texnologiyalardan keng foydalanish bilan bir qatorda poda va zotlarni takomillashtirish, ularning mahsuldorlik va nasldorlik sifatlarini uzluksiz oshirib borishga qaratilgan rejalar birinchi navbatli bo'lib, amalga oshiriladi. Jadallashgan texnologik sharoitlarda har bir qoramol podasi yuqori irsiy belgilarga ega bo'lgan nasldor va sermahsul mollar bilan to'ldirib boriladi. Bunda mollarni tabiiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashib borishligiga katta talab qo'yiladi

Respublikada qoramolchilikni jadal rivojlantirish sharoitlarida uning naslchilik bazasini mustaxkamlash, mollarning nasldorlik va mahsuldorlik sifatlarini oshirishdagi strategik vazifalar respublika naslchiligi havfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir.

Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari qatori chorvachilik taraqqiyot rivojining ham taraqqiy etgan mamlakatlar darajasiga etishishi, jahon andozalariga to'la – to'kis javob berishi muhim, qolaversa, kerak bo'lsa etakchi ahamiyatga ega. Barchamizga ayonki, chorvachilikning samaradorligiga quyidagi omillarga bog'liq.

- Hayvonlarning zotini yaxshilash, chidamliligi yuqori, mahsuldorligi ko'p, serpusht, tez etiluvchan zotlarni yaratish.

- etarli ozuqa bazasini yaratish, uni barcha turdag'i hayvonlarga tayyorlab berish texnologiyasini mukammallashtirish.

Chorvachilikda omixta em ishlab chiqarishni sezilarli darajada ko'paytirish va sifatini yaxshilash maqsadga muvofiqdir.

Hayvonlar qanday nasllik va zot sifatlariga ega bo'lmasin ularga zarur bo'lgan saqlash, asrash sharoitlarini yaratib berilmasa, ular o'z sog'ligini va organizmning potentsial xususiyatlarini namoyon qila olmaydi. Sigirlarning mahsuldorligiga va ozuqa qabul qilishiga mikroiqlim ko'rsatkichlarining ta'siri katta. Molxona harorati, namligi sigirlarning organizmida kechayotgan biokimyoviy jarayonlarga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Havo namligi uning harorati kabi muhim ahamiyatga ega. U organizm bilan muhit o'rtasida issiqlik almashinushi jarayoniga ta'sir qiladi. Havo issiqliq vaqtida namlik ham yuqori bo'lsa, hayvonlar terisidan ter kam bug'lanish tufayli issiqlik ajralishi susayadi. Havo sovuq vaqtida namlik yuqori bo'lsa, issiqlik chiqadi. Molxonalar ichida havo doimo bo'ladi va bir xil harakatlanmaydi. Havoning harakat tezligi va uning yo'nalishi ventilyatsiyalarga, eshik – darvoza oynalarini ochilishiga, devorlarni, shiftni yorug'icha hamda hayvonlarni ajratgan issiqligiga bog'liq bo'ladi. Qish paytlarida molxonani kamchiliklari bo'lmasa, poldan 0,5 – 1,0 metr balandlikda havoning harakat tezligi 0,3 – 0,5 metr/sekund atrofida bo'ladi. Kuz va bahor fasilda molxonalar havosining harakati ancha susayib, yozda esa eshik va oynalar ochiqligida 5 – 7 metr/sekundga etadi. Hayvonlar organizmida ta'sir qiladigan tashqi muhit omillari orasida yorug'lik dastlabki o'rinnarning birini ishg'ol qiladi va faqat ko'rav organlariga ta'sir qilib qolmay, balki butun organizmga ham ta'sir ko'rsatadi. Yorug'lik ko'rav organi orqali ta'sir qilar ekan, bosh miya katta yarim sharlarigacha tarqalib boradigan qo'zg'alishga sabab bo'ladiki, bu organizmning butun fiziologik va ruhiy reaksiyalariga ta'sir ko'rsatadi, organizmning umumiyligi tonusini o'zgartiradi, hamda faol holatini quvvatlab turadi (V.M.Yurkov 1991).

Molxonalar havosidagi ammiak gazining asosiy manbai har xil moddalarning chiqishi - siyidik va mollarning tezagi hisoblanadi.

Binolar havosida namlik ortsa va harakat pasaysa ammiak eriydi. Bu erigan ammiak devori jihozlar, pol va to'shamalarga shimaladi. Harorat ko'tarilsa va havoning bosimi pasaysa, ammiak qaytadan havoga o'tadi. Ammiak zaharli gaz oz miqdorda uzoq vaqt nafas olgan ($0,1 \text{ mg/l}$) hayvonning mahsuldorligi va sog'ligiga ta'sir qiladi. Kam vaqt davomida ammiakli havodan nafas olsa organizm halok bo'ladi.

Hayvonlar organizmiga ammiak gazi salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ammiak gazi zaharli, tezak va siyidikning chirishidan hosil bo'lib, ventilyatsiya ishlamagan vaqtida uning miqdori ko'payadi. Zoogigienik me'yorlar asosida molxonalar havosida ammiak gazining miqdori $10 - 20 \text{ mg/m}^3$ dan oshmasligi kerak. Oshgan holda ko'zning shilliq pardasini, yuqori nafas olish yo'llarining yallig'lanishiga sababchi bo'lib, turli xil kasalliklarni kelib chiqishiga va sigirlarning mahsuldorligini pasayishiga sababchi bo'ladi.

Molxonalar havosida karbonat angidrid gazining ko'payishi hayvonlarning sog'ligi va mahsuldorligiga ta'sir qiladi. Bunday sharoitda organizmda oksidlanish jarayoni qiyinlashadi, organizmning harorati pasayadi, to'qimalarda kislotalilik muhit ortadi va natijada suyaklarning deminerallanishi paydo bo'ladi. Nafas olish havomida CO_2 0,5% va undan ortiq miqdorda ko'paysa, hayvonlarda qon bosimi ortadi, nafas olish va pul's tezlashadi.

Bu esa nafas olish organlari va yurakka ortiqcha kuch tushadi. Agar CO_2 – 4 – 5% bo'lsa, yuqori nafas olish va yurakning urishi tezlashadi, hayvon bo'shashadi, ishtahasi pasayadi va asta – sekin oriqlaydi.

Olimlarning tekshirishicha molxonalar havosida karbonat angidrid gazining miqdor me'yori 0,15 – 0,20% dan oshmasligi kerak.

Ma'lumki, sigirlarni sut mahsuldorligi irsiy belgilaridan biridir.

Bu irsiy belgi bir qancha omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Shunday omillardan har birini alohida ta'sir ko'rsatishni aniqlash qiyin.

Sigirlarni sutga kirishini mutaxassis yo'lga qo'ygan holda har bir ta'sir ko'rsatuvchi omilga alohida e'tibor berishi zarur. Sut mahsuldorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hayvonning zoti va mahsuldorlik yo'nalishi, asralayotgan iqlim sharoitining ta'siri, sut sog'ish jarayoni, mollarini oziqlantirish va parvarish qilish sharoitini ta'siri, urg'ochi tanalarni birinchi marta qochirishdagi yoshi laktatsiya davrining davomiyligi hamda sigirlarni tug'ishga to'g'ri tayyorlash va sog'ish usullaridan foydalanish.

Shunday omillar ichida sigirni to'g'ri tirik vaznini mahsuldorligini hisobga olib talab darajasida oziqlantirilmaganda sutforligi 25-50 % gacha gigiena talablar darajasiga javob bermaydigan sog'ish tsexlarida sog'ish, sog'im muddatlariga rioya qilmaslik, tashqi va ichki faktorlar ,sigirlarning mahsuldorligini 5-10 % gacha kamayib ketishiga sabab bo'ladi. Sigirlarning sut mahsuldorligiga uning kunlik laktatsiyadagi bergen suti va sutining tarkibidagi yog', oqsil miqdoriga qarab baholanadi. Sigirlar bir maromda boqib borilganda to'qqandan keyin suti dastlabki ikki uch sog'im oylarigacha ko'payib borpsa keyingi oylar asta-sekin pasayib boradi. Ko'pchilik tadqiqotchilarning ma'lumotlariga qaraganda kam sut sigirlar to'qqandan keyin 15 kunga borib ko'p sut beradigan bo'ladi. Xolbuki ser sut sigirlar to'qqandan keyin 28-30 kunga borib eng ko'pe kunlik sog'imga ega bo'ladi. Sigirlarda sog'ib olinadigan sutning kamayib ketishiga aksari ularning bug'oz bo'lib qolishi sabab bo'ladi, chunki bug'ozlik butun organizmni o'zgarishiga sababa bo'ladi. Shu sababli sigirlarni serves davrini yuqori mahsuldor podalarda 60-80 kun o'rtacha sut beruvchi sigirlar podasida 50-60 kun bo'lishligi maqsadga muvofiq. Sigirlardan olinadigan kunlik sut miqdori eng ko'p darajada etgandan keyin uning kamayishi turli zotdagi mollarda turlicha bo'ladi. Oyiga 5 % dan 12-14 % gacha kamayib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akmalxanov Sh., Ashirov M. Buzoq va g'unajinlarni o'stirish texnologiyasi. Toshkent, Mehnat, 1986. 126 bet
2. Arzumanyan E.A. Skotovodstvo M.Kolos. 1984, s-85
3. Ikromov T.X., Sattarov N.E. Umumiyy Zootexniya. Toshkent 2002. 156 b
4. Nosirov U.N. Qoramolchilik. Toshkent 2001. 384 bet
5. Uzokov Sh.T. Molochnaya produktivnost' i nekotorые biologicheskie osobennosti korov krasnoy stepnoy porodы, poluchennykh pri razlichnykh metodax podbora. Avtoreferat kand.diss. Tashkent. 1996. 26 s.
6. Xafizov I.I. Zavisimost' produktivnykh i vosproizvoditel'nykh svoystv krasnogo stepnogo skota raznykh genotipov ot estestvennykh rezistentnosti. Avtoreferat kand.diss. Tashkent. 2014. 18 s.

BOTALAQLARDIŃ ÓSIW ÓZGESHELIKLERİ

Tleumuratov A.K., Kaliev B.A., Xojambergenova N.B.

Samarqand mämlekетlik veterinariya medicinası, sharwashılıq hám
biotexnologiyalar universiteti Nókis filiali

Búgingi künde jáhánde túyeshilik penen shuǵıllanatuǵın tiykarǵı mämlekетler qatarına Avganistan, Namibiya, QAR (Qubla Afrika Respublikası), Avstraliya, Argentina, Muǵul mämlekетleri kiredi. Bul mämlekетlerde málim dárejede túyeler ónimdarlıǵın asırıw, násliy qásiyetlerin jaqsılaw boyınsha bir qansha ilimiý izertlewler alıp barılǵan.

Túyelerdiń ónimdarlıǵın (sút, gósh hám jún) asırıw boyınsha bir qansha jumıslar ámelge asırılǵan.

Túyelerdiń násillik hám ónimdarlıq potencialınıń júzege shıǵıwı ózgesheligin asırıw boyınsha alıp barılǵan ilimiý izertlewler nátiyjesinde ónimdarlıq kórsetkishlerine itibar qaratılǵan.

Túyelerdiń ónimdarlıǵın jetistiriw hám násillik imkaniyatlarından tolıq paydalaniw, ónimdar liniyalar jaratıw, ónimdarlıǵın asırıwdıń nátiyjeli usılların islep shıǵıw zárür bolıp tabıladı.

Túyeler biologiyalıq potencialının hámde shólkemlestiriw texnologiyalıq faktorlardan kompleks paydalanıp ónimdarlıǵın asırıw bazar ekonomikası sharayatında tarmaqtı jedel rawajlandırıwda zárür áhmiyet kásp etedi.

Túyeshilik sharwashılıqtıń áhmiyeti tarawı bolıp, isshi, transport sıpatında, ónim alıwda (sút, gósh, jún) tutqan orı úlken. Jer júzinde túyeshilik áyem-zamanlardan berli rawajlanıp kelgen. Ózbekistanda hám túyeshilik keń rawajlanıp, mämlekетlerara sawda-satiqtı jolǵa qoyıwda, millet hám elatlardı úrip-ádetleri, mádeniyatı, oǵada áhmiyetke iye bolǵan ullı jipek jolın shólkemlestiriwde tiykarǵı oray esaplanǵan. Túye kárwanları, túyeshilik insaniyat awırın jeńil qılıp, elatlar hám milletlerdiń materiallıq hám ruwxıy tärepten qollap hám quwatlap kelgen jániwarı. Demek, xalıq xojalıǵın rawajlandırıwda óz orı bar.

Túyeshilikti rawajlandırıwda olardan alınatuǵın násilli áwlad áhmiyetli esaplanadi. Botalaqlardı baǵıw buzaw hám qulinlargá qraǵanda biraz quramalı.